

**O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi majlisining
2-son bayonnomasi**

Toshkent sh.

2024-yil 24-may

Raislik qiluvchi: O'zbekiston Respublikasi oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi O.A.Parpibayeva

Kengash majlisi kotibi: N.Karimova

Qatnashganlar: Oila va xotinqizlar qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi aʼzolari: (15 nafar)

Oila va xotin-qizlar qo'mitasidan: Markaziy apparat xodimlari

Kun tartibi:

***2024-yil uchun Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi faoliyatining maqsadi va vazifalari.***

Kun tartibidagi masala yuzasidan Qo'mita raisi O.Parpibayeva Qo'mita raisining 2024-yil 20-fevraldagi 25-son buyrug'iga muvofiq Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzurida Jamoatchilik kengashi (keyingi o'rinlarda - Kengash) tashkil etilganligini eslatib o'tdi. Uning yangilangan tarkibi Qo'mita raisining 2024-yil 17-maydagi 63-son buyrug'i bilan qayta tasdiqlanganligi aytib o'tildi.

O.Parpibayeva Qo'mita faoliyatining takomillashtirilishida faol ishtirokini kutayotgan Kengashning asosiy vazifalari haqida to'xtalib o'tdi. Kengash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlar qo'mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 21-dekabrda PF-208-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-401-son qarori, shuningdek boshqa konun xujjatlari bajarilishining dolzarb instrumentlarini muhokama qiladigan maydonga aylanishi kerak. Muhokama qilinadigan masalalar ko'pligi bois, u Kengash majlisini har chorakda bir marta o'tkazishni taklif qildi.

Kengash a'zolari – G.Rashidova, M.Maxmudova, F.Abduraximova, B.Abdullayeva, U.Abdullayeva, Sh.Rashidova va boshqalar munozaralarda Kengashning asosiy yunalishlari va vazifalari bo'yicha takliflar bildirishdi.

M.Nurmatova Kengash ishini quyidagi tarzda tashkil etishni taklif qildi:

Kengash 2024-yilda uning doirasida faoliyat yuritadigan mavzularni belgilash;

mavjud muammolarni muhokama qilish va tavsiyalar ishlab chiqishni doimiy yoki muddat asosida tashkil etiladigan Ishchi guruhlarda o'tkazish.

Ishchi guruhlariga guruh mavzulari bo'yicha ekspertlarni jalb qilish;

mavzular asosida ishchi guruhlar kesimida Kengash faoliyatining rejasini tuzish;

Kengashning majlislariga Ishchi guruhlarda oldindan tayyorlangan tavsiyalar loyihalarini kiritish;

Kengash faoliyatini Oila va xotin-qizlar qo'mitasi buyrug'i bilan tasdiqlangan Kengash to'g'risidagi nizom, shuningdek Kengash ishining reglamenti va boshda ichki hujjatlar asosida yuritish.

M.Nurmatovaning taklifini G.Rashidova, U.Abdullayeva va Kengashning boshqa a'zolari qo'llab-quvvatlashdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan fikr-mulohazalarni inobatga olib, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. O.Parpibayevaning Kengash majlisini har chorakda bir marta o'tkazish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

2. Kengashning Raisi etib M.Nurmatova saylansin.

3. M.Nurmatovaga bir hafta muddatda:

Kengashning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda "2024-yilda Kengashning majlislarida ko'rib chiqiladigan asosiy mavzular" hujjati loyihasini ishlab chiqish;

Kengashning ichki hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishni tashkil etish;

ularni Kengashning navbatdagi majlisiga kiritish uchun kengash a'zolari ko'rib chiqishi uchun taqdim etilsin.

4. Kengashning navbatdagi majlisi 2024-yil 19-iyulda onlayn-konferensiya rejimida o'tkazilsin.

Kengash raisi:



M.Nurmatova

Kengash kotibi:



N.Karimova